

K.D.Ismanova
dotsent, Namangan muhandislik-texnologiya unstituti, Namangan
X.R.Zokirova
talaba, Namangan muhandislik-texnologiya unstituti, Namangan

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI AVTOMATLASHTISH VA UNING HAYOTIMIZDAGI TADBIQI

Аннотация: бу мақолада автоматлаштирилган тизимлар, уларнинг ишлаб чиқаришдаги ва турли соҳалардаги ўрни, инсон ҳаётида автоматлаштирилган жараёнларни бошқаришдаги асосий вазифалар, тизим ишини яхшилаш муаммолари, онлайн савдо ва ундан қутиладиган самаралар ҳақида маълумотлар баён этилади.

Kalit so'zlar: автоматлаштирилган тизимлар, ишлаб чиқариш жараёнлари, автоматлаштирилган жараёнларни бошқариш, онлайн савдо, тизим фаолияти, қутиладиган самарадорлик, муаммолар, ечимлар.

Аннотация: в данной статье описаны сведения об автоматизированных системах, их роли в производстве и различных отраслях, основных задачах управления автоматизированными процессами в жизни человека, проблемах повышения производительности систем, онлайн-продажах и ожидаемых результатах.

Ключевые слова: автоматизированные системы, производственные процессы, автоматизированное управление процессами, онлайн-торговля, работа системы, ожидаемая эффективность, проблемы, решения.

Abstract: this article describes information about automated systems, their role in production and various industries, the main tasks of managing automated processes in human life, problems of increasing system performance, online sales and expected results.

Key words: applikatsiyalar, internetdagi tizimlar, android, iOS, Uniplaces, Student.com, Nestpick, Roomster ilovalari, my.gov.uz portal, kopmyuter dasturlar, veb ilovalar.

Ilovalar(applikatsiyalar) – bu kompyuter yoki mobil qurilmada turli vazifalarni bajarishga mo'ljallangan dasturiy ta'minotdir. Ular foydalanuvchilarni turli xil xizmatlar bilan ta'minlaydi va texnologik muammolarni hal qilishda yordam beradi. Ilovalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1.mobil ilovalar:

- Nativ ilovalar – muayyan operatsion tizim (masalan iOS yoki android) uchun maxsus ishlab chiqilgan va shu tizimda optimal ishlaydi.
- Veb – ilovalar – brauzer orqali ishlaydi va platformaga bog'liq emas. Internet orqali foydalaniladi.

2.kompyuter dasturlari:

- Ofis dasturlari – matn muharrirlari, electron jadvallar, prezentatsiya vositalari kiradi.
- Multimedia dasturlari – audio va video muharrirlari.

3.ijtimoiy tarmoqlar va aloqa ilovalari:

- Ijtimoiy tarmoqlar (masalan, facebook,Instagram) va muloqot ilovalari (masalan, whatsapp, telegram) foydalanuvchilarni bir-biri bilan bog'laydi.

4.o'qitish va o'rganish ilovalari:

- O'qitish va o'rganish uchun mo'ljallangan ilovalar (masalan, coursera, duolingo) foydalanuvchilarga turli mavzularni o'rganishda yordam beradi.

Yuqorilardagidan ko'rinib turibdiki, ilovalar kundalik hayotimizni ancha osonlashtiradi va turli sohalarida samaradorlikni oshiradi. Hozirgi kunda ilovalar ishlab chiqish va ulardan foydalanish texnologik rivojlanishning ajralmas qismiga aylandi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, sizlarga yana bir dasturni yangi, EDUROOMni taklif qilmoqchiman. Men taklif qilmoqchi bo'lgan dastur asosan talabalar uchun dolzarb bo'lgan mavzu talaba uchun ijara topish muommosiga qaratilgan. Hozirgi kunda raqamli texnologiya rivojlangani hisobiga bundan ilovalar albatta bor. Ular:

1. Uniplaces – talabalar uchun turar joylar topish uchun mo'ljallangan va Evropa miqyosini o'z ichiga oladi.
2. Student.com - talabalar uchun turar joylar shahrlar, qulayliklar haqida batafsil ma'lumot beradi va qamrovi Global
3. Nestpick - qisqa va uzoq muddatli ijaralar, shahar filtrlari haqida malumot beradi va qamrovi Global.
4. HousingAnywhere - talabalar uchun turar joy, xavfsiz to'lov tizimi, mijozlarni qo'llab-quvvatlash uchun platforma va qabrovi Global.
5. Roomster - flat-share, xonadosh topish, profil yaratish, kontakt imkoniyatlarini beradi va qamrovi Global.

Quyidagilar har biri o'ziga hos hususiyatlarda va turli mintaqalarda faoliyat yuritadi. EDUROOM ilovasi faqat O'zbekiston hududida yangi 12ta viloyatni o'z ichiga oladi. Bu ilovani yaratishdan asosiy maqsad talabalarni TTJ ga hujjat topshirishini online tizimga o'tkazish, ortiqcha qog'ozbozlik va ovoragarchiliklarni oldini olish va TTJ ga joylashtirishda yuzaga keladigan muammo va navbatlarni oldini olish. Bu ilovani boshqa ilovalardan farqi faqat 12 ta viloyat ichida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalarinidagiga qo'llanishi, bu ilovadan foydalanayotgan fuqora bir vaqtning o'zida ham oliy ta'lim muassasasining TTJsigga ariza topshirishi, ular atrofida ijara xonalarni ro'yhatini chiqarish hisoblanadi va shu ilova orqali to'lovni amalga oshirishi mumkin.

Oliy talim muassasalarining TTJsigga hujjatni my.gov.uz portlidan ham amalga oshirish ham mumkin lekin EDUROOM ilovasi orqali hammasini bir vaqtning o'zida ammalga oshirish yaxshiroq menimcha.

Ilovamizning bosh sahofasi:





Shu holatda ochidadi va foydalanuvchi qay holatdagi bo'limga murojat qilmoqchi bo'lsa o'zi hohlagan bo'libdan davom etadi.

Bunday platforma yaratish uchun quyidagi texnologiyalar va vositalardan foydalanish mumkin:

- Frontend: HTML, CSS, JavaScript, React yoki Angular.
- Backend: Node.js, Django yoki Ruby on Rails.
- Ma'lumotlar bazasi: PostgreSQL, MySQL yoki MongoDB.
- To'lov tizimi: PayPal, Stripe yoki boshqa to'lov shlyuzlari.
- Mobil ilova: React Native, Flutter yoki Swift (iOS) va Kotlin (Android).

Mazkur platforma talabalar uchun turar joy topish jarayonini osonlashtiradi va vaqtni tejashga yordam beradi.